

ARITMIYALAR TURLI SHAKILARI VA ULARNI DAVOLASH YONDASHUVLARI

*Abduxokimov Muhammadziyo
Qo‘qon universiteti Andijon filiali
1 kurs davolash ishi talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada yurak ritmi buzilishlari – aritmiyalarning asosiy turlari, ularning kelib chiqish sabablari, klinik belgilari va zamonaviy davolash usullari tahlil qilinadi. Aritmiyalarning tashxis qo‘yish usullari va har bir holatga individual yondashuvning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, farmakologik va invaziv muolajalar haqida qisqacha ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Aritmiya, bradiaritmija, taxikardiya, yurak ritmi, elektrofiziologiya, ablatsiya, antiaritmik dori vositalari.

DIFFERENT TYPES OF ARRHYTHMIAS AND THEIR TREATMENT APPROACHES

Annotation: This article analyzes the main types of heart rhythm disorders - arrhythmias, their causes, clinical symptoms and modern treatment methods. The methods of diagnosing arrhythmias and the importance of an individual approach to each case are highlighted. Also, brief information about pharmacological and invasive treatments is provided.

Keywords: Arrhythmia, bradyarrhythmia, tachycardia, heart rhythm, electrophysiology, ablation, antiarrhythmic drugs.

KIRISH

Aritmiya yurakning normal ritmini buzilishi bilan tavsiflanadigan holat bo‘lib, yurak urishining juda tez (taxikardiya), sekin (bradikardiya) yoki notekis (ekstrasistoliyalar) bo‘lishi bilan namoyon bo‘ladi. Aritmiyalar o‘zining turli shakllari bilan bemorning hayot sifati va salomatligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ular yurak kasalliklarining alohida klinik shakli bo‘lib, ko‘pincha boshqa yurak patologiyalari bilan birgalikda uchraydi. Aritmiyalar sababli yurak faoliyatining yetarli qon aylanishini ta’minlay olmasligi xavfli asoratlarga olib keladi, shuning uchun ularni erta aniqlash va davolash muhim ahamiyatga ega.

ARITMIYALARNING ASOSIY

Sinus bradikardiyasi. Yurak urishining sekinlashishi (60 dan kam/min). Sportchilarda fiziologik holat bo‘lishi mumkin, lekin ba’zi hollarda yurakning o‘zida yoki vegetativ nerv tizimidagi buzilishlar sababli rivojlanadi.

Sinus taxikardiyasi. Yurak urishining 100 tadan yuqori bo‘lishi. Harorat ko‘tarilishi, stress, gormonlar yoki yurak yetishmovchiligi fonida yuzaga keladi.

Ekstrasistoliyalar. Yurakning vaqtidan oldin qisqarishi. Atriyal, ventrikulyar yoki nodal ekstrasistoliyalar mavjud. Ko‘pchilik hollarda xavfli emas, lekin ko‘p sonli va simptomli bo‘lsa, davolash talab etiladi.

Paroksizmal taxikardiyalar. To‘satdan boshlanib va to‘satdan tugaydigan tez urishlar. Supra-ventrikulyar va ventrikulyar shakllari mavjud. Tashxis va davolashda aniqlik juda muhim.

Atriyal fibrillyatsiya (murmush ritmi). Yurak bo‘lmachalarining tartibsiz qisqarishi. Eng ko‘p uchraydigan aritmiya shakli bo‘lib, insult xavfini oshiradi. Kronik shaklida antikoagulyant terapiya talab qilinadi.

Atrioventrikulyar blokadalar. Yurakning yuqori va quyi qismlari orasida impulslar o‘tishining buzilishi. I darajadan III darajagacha farqlanadi. Og‘ir hollarda yurak stimulyatori (elektrokardiostimulyator) qo‘yilishi lozim.

KELIB CHIQISH SABABLARI

1. Yurak kasalliklari: Aritmiya ko‘pincha yurakning asosiy tuzilmalarida mavjud bo‘lgan o‘zgarishlar natijasida paydo bo‘ladi, koronar yurak kasalligi (yurak ishemiyasi), miokard infarkti, yurak yetishmovchiligi, qon bosimi yuqoriligi (gipertoniya), yurak klapanlaridagi nuqsonlar.

2. Elektrolit muvozanatining buzilishi: Yurak hujayralarining elektr faolligi natriy, kaliy, kaltsiy va magniy kabi minerallarga bog‘liq ularning yetishmasligi yoki ortiqchaligi yurak ritmini buzishi mumkin.

3. Gormonlar va endokrin tizim kasalliklari: Qalqonsimon bezning faoliyati ortishi (giperterioz) va qandli diabet – qon shakarining keskin o‘zgarishlari yurakka ta’sir qilishi mumkin.

4. Dori vositalari va toksinlar: Ayrim dorilar (masalan, yurak dorilari, antidepressantlar, antibiotiklar) yoki moddalar, spirtli ichimliklar, chekish, giyohvand moddalari, energetik ichimliklar bularning barchasi yurak ritmiga zarar yetkazishi mumkin.

5. Stress va asabiy holatlari: Kuchli ruhiy zo‘riqish, xavotir, surunkali uyqusizlik ham vegetativ asab tizimi orqali yurak ritmini izdan chiqaradi.

6. Tug‘ma yurak nuqsonlari: Ba’zi odamlarda yurakning elektr sistemasida tug‘ma nosozliklar bo‘lib, ular yoshligidanoq aritmiya rivojlanishiga olib keladi.

7. Yoshi ulg‘aygan sari: Yurak to‘qimalarida tabiiy qarish jarayonlari, elektr impulsalarini yetkazishdagi sekinlashuvlar, turli yurak kasalliklari bilan birga aritmiyani chaqirishi mumkin.

ARITMIYALARNI TASHXISLASH USULLARI

Elektrokardiografiya (EKG) – aritmiyani aniqlashning asosiy usuli.

Holter monitoring – 24-48 soatlik yurak faoliyatini yozib borish.

Elektrofiziologik tekshiruv – yurakda aritmiya o‘chog‘ini aniqlash.

Ehokardiyografiya – yurak strukturasidagi o‘zgarishlarni baholash.

DAVOLASH YONDASHUVLARI

Farmakologik davolash. Beta-blokatorlar (metoprolol, bisoprolol). Kalsiy kanal blokerlari (verapamil, diltiazem). Antiaritmik preparatlar (amiodaron, propafenon, lidokain). Antikoagulyantlar (varfarin, NOAKlar) – atriyal fibrillyatsiyada insultning oldini olish uchun.

Invaziv usullar: Kateterli ablatsiya – elektr impulsi yordamida aritmiya manbasini yo‘q qilish. Kardioverter-defibrillyator (ICD) – hayotga xavfli aritmiyalarda yurak ritmini nazorat qiluvchi qurilma. Elektrokardiostimulyator – yurak urishini stimullovchi apparat.

Hayot tarzini o‘zgartirish. Tuz va alkogolni cheklash. Jismoniy faoliyikni tartibga solish. Stressni boshqarish. Dorilarni qat’iy shifokor nazorati bilan qabul qilish.

XULOSA

Aritmiyalar yurak faoliyatining eng muhim buzilishlaridan biridir. Ularning shakllari va klinik ko‘rinishlari har xil bo‘lib, individual yondashuvni talab qiladi. Vaqtida tashxis qo‘yish va to‘g‘ri davolash choralar ko‘rilsa, ko‘plab aritmiyalarni to‘liq davolash yoki samarali nazorat qilish mumkin. Zamonaviy kardiologiyada aritmiyalarni bartaraf etishning keng imkoniyatlari mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Braunwald E. Heart Disease: A Textbook of Cardiovascular Medicine. Elsevier, 2023.
2. Zipes DP, Jalife J. Cardiac Electrophysiology: From Cell to Bedside. Elsevier, 2022.
3. ESC Guidelines on Cardiac Arrhythmias, European Society of Cardiology, 2023.
4. Chugh SS et al. Epidemiology and natural history of atrial fibrillation: clinical implications. JACC, 2022.
5. Ўзбекистон ССВ. Юрак-қон томир касалликлари бўйича клиник протоколлар, 2021.